



UDK:636.32/38:088

Komiljon ISMOILOV,

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Dilmurod ALIYEV,

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti kafedrası mudiri, b.f.d.

Shavkat MUXITDINOV,

Samarqand davlat tibbiyot universiteti, kafedrası dotsenti

E-mail: ismoilov87@gmail.com

SamDTU dotsenti, t.f.d F.S. Oripov taqrizi asosida

DYNAMICS OF EXTERIOR DIMENSIONS AND BODY INDICATORS AT THE STAGES OF GROWTH AND DEVELOPMENT OF SUR KORAKOL LAMBS IN DESERT CONDITIONS

Annotation

The article presents information about the external dimensions and dynamics of body parameters of Sur-Karakol lambs of bronze, platinum, amber and black colors at the stages of birth, growth and development.

Key words: Body weight, bronze, amber, platinum, exterior, waist height, chest width, chest depth, leg circumference.

ДИНАМИКА ЭКСТЕРЬЕРНЫХ РАЗМЕРОВ И ПОКАЗАТЕЛЕЙ ТЕЛА НА ЭТАПАХ РОСТА И РАЗВИТИЯ СУР КОРАКОЛЬСКИХ ЯГНЕНКОВ В УСЛОВИЯХ ПУСТЫНИ

Аннотация

В статье представлены сведения о внешних размерах и динамике параметров тела сур-каракольских ягнят бронзового, платинового, янтарного и черного окрасов на этапах рождения, роста и развития.

Ключевые слова: Масса тела, бронза, янтарь, платина, экстерьер, высота талии, ширина груди, глубина груди, окружность ног.

CHO'L SHAROITIDA SUR QORAKO'L QO'ZILARINING O'SISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARIDAGI EKSTERER O'LCHAMLARI HAMDA TANA KO'RSATKICHLARI DINAMIKASI

Annotatsiya

Mazkur maqolada bronza, platina yantar va qora rangbaranglikdagi sur qorako'l qo'zilarining tug'ilish, o'sishi va rivojlanish bosqichlaridagi eksterer o'lchamlari hamda tana ko'rsatkichlari dinamikasi to'grisida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Sur qorako'li, tirik vazn, bronza, yantar, platina, eksterer, yag'rin balandligi, ko'krak kengligi, ko'krak chuqurligi, oyoq aylanasi.

Kirish. Bugungi kunda dunyoning 50 dan ortiq davlatlarida qorako'l zotli qo'ylari mavjud bo'lib, ularning umumiy soni 31 mln. boshni tashkil qiladi. Qorako'l zotli qo'ylar asosan Afg'oniston, O'zbekiston, Turkmaniston, Qozog'iston, Tojikiston, Rossiya Federatsiyasi, Ukraina, Moldaviya, Ruminiya, Bolgariya, Polsha, Slovakiya, Xitoy, Mongoliya, Eron, Germaniya, Vengriya, Italiya, Norvegiya, Serbiya, AQSh, Argentina, Janubiy Afrika, Namibiya, Chad, Angola va boshqa davlatlarda urchitib boqilmoqda [1].

80-yillarning boshlariga kelib qorako'l qo'ylarini muhim naslchilik belgilari bo'yicha seleksiya va seleksiyaning samarali usullaridan foydalanish asosida qorako'l qo'ylarining 18 zotli va zavod turi yaratildi. Jumladan, rangi bo'yicha: 5 ta qora – Qoraqum (1976), Muborak (1976), Nishon (1976), Pamuk (1975), Ulus (1980), 4ta kulrang – Nurota (1970), Janubiy O'zbekiston (1970), G'uzor (1978), Bobotog' (1980), 6ta sur – Qizilqum (1962), Qoraqum (1962), Navoiy (1962), Sverdlovskiy (1962), Surxandriinskiy (1962), Nuratinskiy (1971), 2ta oq – Samarqand (1977), Gagarinskiy (1977) va 1 pushti – Sayxanskiy (1977) zavod tiplari yaratilgan [3].

1981-2000-yillarda Qorako'l qo'ychiligida qorako'l qo'ylarining 5 ta zavod turi yaratildi: bitta qora – Qarnab (1995), kulrang – Tamdi (1991), sarg'ish – Nuratinskiy (2000) va 2 rang sur – Sanguzar (1990) va Surxondaryo antrasiti (1991) [3].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. 1960-1985-yillarda qo'ylarning shaxsiy genetikasi masalalarini o'rganish keng yo'lga qo'yildi - ranglar va astra turlarining merosi (B.N.Vasin, V.I.Stoyanovskaya; I.N.Dyachkov, N.S.Gigineishvili, R.G.Valiev) S.N.Bogolyubskiy, I.N.Dyachkov) va xususiyatlarning o'zgaruvchanligi (M.A.Koshevoy). Institutda Qorako'l zotli qo'ylar naslchilik markazining yaratilishi (1978) va eksperimental tadqiqotlar natijalarini olish genetik qon tizimlarining xususiyatlarini (E.A. Egorov, 1971), qon guruhlari immunogenetikasini (E.A. AtaQurbanov, 1971) o'rganish imkonini berdi. 1986). Qo'ylarning teri-jun po'stlog'ining melanin pigmenti genetikasi (O.P.Fishchenko), teri-jun po'stlog'ining morfogenetikasi (A.P.Vorobevskiy), xromosoma to'plamining sitogenetikasi (U.T.Fozilov) bo'yicha tadqiqotlar olib borildi. Bu davrda institutda teri va soch turmagi biokimyosini (R.A.Daminov), ko'payish (V.G.Shimanov, E.A.AtaQurbanov), konstitutsiyaviy differentsiatsiyani (S.Yu.Yusupov) o'rganishga oid tadqiqotlar ham rivojlandi. qorako'l qo'ylarining qorako'l belgilarining genetik ko'rsatkichlari (B.L.Isayants, A.Gaziyev) va biokimyoviy xususiyatlari (U.X.Aripov). mahsuldorlikka qon tarkibidagi kaliyning miqdori, fermentlarning ta'sirini (D.D.Aliyev) bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borishgan [3].

Umuman olganda qorako'l qo'ylarining mahsuldorligini oshirish, qo'ylar bosh sonini ko'paytirishni ta'minlovchi biologik faol moddalar, mikroelementlar ko'rsatkichidan foydalanishning ilmiy asoslangan usullarini ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi. Hayvonlarning o'sish va rivojlanishida muhim omil biokimyoviy jarayonlar intensivligi hisoblanadi, barcha

o'suvchi organizm to'qima va organlarida kerakli vazifalarni bajaradi. O'sish jarayonlarida alohida yoshga oid davrlarda moddalar almashinuvi har xil intensivlikda kechadi.

Shu bilan birga, naslchilik ishlarini olib borish kerak bo'lgan hayvonlarning tashqi ko'rinishini baholash juda muhimdir, bu hayvonning tashqi ko'rinishi, odati, uning onstitutsiyasini, sifat holatini aks ettirishi uning sog'lig'i va iqtisodiy qiymatini baholashga imkon beradi [7].

Tadqiqot metodologiyasi. Tajriba Samarqand viloyati Nurobod tumani "Tutli qorako'l zamin" naslchilik xo'jaligida urchitilayotgan sur rangli platina, yantar, bronza, rangbaranglikdagi toza zotli qorako'l qo'yalarida o'tkazildi.

Turli yoshdagi olingan raqamli ma'lumotlarga variatsion statistika usullarida Руководство для биометрии для зоотехников" (Н. А.Плохинский 1969) qo'llanmasi bo'yicha matematik ishlov berilgan. Tajribadagi qo'yalarni etologik tiplarga ajratishda umumqabul qilingan uslublardan foydalanildi (Беляев Д.К., Мартинова В.Н., 1973) [2].

Tahlil va natijalar. Hayvonlarning o'sish xususiyatlarini qo'shimcha tavsiflash uchun zootexniya fani asoschilari P.N.Kuleshov (1947), M.F.Ivanov (19), Ye.A.Bogdanov (1957) va boshqalarning qishloq xo'jalik hayvonlari mahsuldorlik xususiyatlarini baholashda ekster'erning ahamiyati to'g'risidagi yo'riqnoma va ko'rsatmalari asosida bronza, yantar va platina rangbarangliklaridagi sur qo'zilarining ekster'eri o'rganildi [7].

Ekstererini baholash hayvonning alohida tana qismlarining rivojlanishi, hayotchanligi va mahsuldorligi o'rtasidagi bog'liqlikni bilish hamda hayvonning tashqi tuzilishi bo'yicha tana tuzilishi proporsiyasi, mustahkamligi, sog'ligi va xo'jalikda foydalanishga yaroqliligini baholash imkoniyatini beradi.

1-jadval

Tajribadagi qo'zilarining tug'ilgan paytidagi asosiy tana tuzilish o'lchamlari, sm

Tana qismlari	n	Turli rangbaranglikdagi sur qo'zilar tana tuzilishi o'lchamlari					
		Bronza		Yantar		Platina	
		M±m	Cv	M±m	Cv	M±m	Cv
Yag'rin balandligi	15	38,3±0,39	4,4	38,2±0,26	3,1	38,0±0,16	1,9
Gavdaning qiya uzunligi	15	30,3±0,35	5,3	30,1±0,38	5,6	30,0±0,27	4,1
Ko'krak kengligi	15	9,7±0,31	14,7	9,5±0,23	11,1	9,2±0,20	9,8
Ko'krak chuqurligi	15	14,4±0,19	6,2	14,2±0,18	5,8	13,6±0,04	8,9
Ko'krak aylanasi	15	40,0±0,32	3,6	41±0,30	3,4	40,0±0,34	3,9
Oyoq aylanasi	15	6,8±0,17	11,4	6,7±0,16	10,1	6,5±0,16	1,1
Tos cho'qqisi Kengligi	15	10,2±0,2	8,8	10,1±0,26	11,7	10,0±0,22	10,2

Qo'zilarining tug'ilgan paytidagi eksterer ko'rsatkichlari 1-jadvalda tizimlashtirilib, olingan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, yag'rin balandligi va ko'krak aylanasi bo'yicha o'zaro taqqoslanayotgan qo'zilar orasida sezilarli farq aniqlanmadi.

Ammo ko'krak chuqurligi bronza rangbaranglikdagi qo'zilar, platina va yantar rangbaranglikdagi tengqurlariga nisbatan chuqur bo'lib, bu farq mutanosib ravishda 0,8 va 0,2 smni tashkil qildi. Umumiy gavda suyagi rivojlanishini tavsiflovchi poycha aylanasi o'lchami tahlili shuni ko'rsatadiki, bu ko'rsatkich bronza rangbaranglikdagi qo'zilar 6,8 sm tashkil qilib, platina va yantar rangbaranglikdagi tengqurlariga nisbatan poycha aylanasi mos ravishda 0,3 va 0,1 sm uzun ekanligi aniqlandi. Hayvon tanasining kompaktiligini belgilovchi tos cho'qqisi kengligi ko'rsatkichi bo'yicha ham bronza rangbaranglikdagi qo'zilar, platina va yantar rangbaranglikdagi qo'zilarga nisbatan mos ravishda 0,2 va 0,1 sm keng ekanligi aniqlandi.

2-jadval

Tajribadagi qo'zilarining 21 kunlik yoshidagi asosiy tana tuzilish o'lchamlari, sm

Tana qismlari	p	Turli rangbaranglikdagi sur qo'zilar tana tuzilishi o'lchamlari					
		Bronza		Yantar		Platina	
		M±m	Sv	M±m	Sv	M±m	Sv
Yag'rin balandligi	15	42,0±0,4	5,2	41,1±0,49	5,3	39,9±0,35	4,01
Gavdaning qiya uzunligi	15	38,6±0,34	3,9	38,4±0,34	3,9	37,5±0,26	3,2
Ko'krak kengligi	15	11,4±0,39	15,3	11,1±0,29	11,8	10,5±0,24	10,4
Ko'krak chuqurligi	15	16,2±0,25	6,9	15,9±0,17	5,1	15,3±0,23	6,73
Ko'krak aylanasi	15	49,8±1,69	15,2	49,5±1,8	16,7	48,9±0,38	3,5
Oyoq aylanasi	15	7,0±0,15	10,0	6,9±0,16	12,3	6,8±0,19	11,7
Tos cho'qqisi kengligi	15	11,4±0,31	5,1	11,3±1,47	5,8	10,8±0,24	10,2

Tajribadagi qo'zilarining 21 kunlik yoshida o'lchangan asosiy tana tuzilish o'lchamlari 2-jadvalda qayd etilgan. Olingan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, yag'rin balandligi, gavdaning qiya uzunligi, ko'krak kengligi va chuqurligi, ko'krak va poycha aylanasi hamda tos cho'qqisi kengligi o'lchamlari bronza rangbaranglikdagi qo'zilar, platina va yantar, rangbaranglikdagi tengqurlariga nisbatan mos ravishda 2,1 va 0,9 sm; 1,1 va 0,2 sm; 0,9 va 0,4 sm; 0,9 va 0,3 sm; 0,9 va 0,4 sm; 0,2 va 0,1 sm; 0,6 va 0,1 sm yuqori ekanligi aniqlandi.

3-jadval

Tajribadagi qo'zilarining 4,5 oylik yoshidagi asosiy tana tuzilish o'lchamlari, sm

Ko'rsatkichlar	p	Turli rangbaranglikdagi sur qo'zilar tana tuzilishi o'lchamlari					
		Bronza		Yantar		Platina	
		M±m	Sv	M±m	Sv	M±m	Sv
Yag'rin balandligi	15	57,3±0,49	3,8	57,1±0,47	3,7	56,3±1,29	10,3
Gavdaning qiya uzunligi	15	56,5±0,45	3,5	56,4±0,42	3,4	55,8±0,31	2,5
Ko'krak kengligi	15	18,9±0,25	5,8	18,8±0,25	5,8	18,7±0,26	6,4
Ko'krak chuqurligi	15	25,5±0,22	3,9	24,9±0,29	5,2	24,5±0,26	4,9
Ko'krak aylanasi	15	75,2±0,56	3,3	74,8±0,58	3,4	73,4±0,53	3,3
Oyoq aylanasi	15	7,1±0,13	8,4	7,0±0,16	10,0	6,9±0,15	10,1
Tos cho'qqisi kengligi	15	13,1±0,3	10,7	12,9±0,29	10,1	12,5±0,24	8,9

Tajribadagi qo'zilarining 4-4,5 oylik yoshida asosiy tana tuzilishi o'lchamlari o'lchanganda (3-jadval), o'rganilgan barcha tana o'lchamlari bo'yicha ustunlik bronza rangbaranglikdagi qo'zilarida kuzatilib, ular platina va yantar rangbaranglikdagi tengqurlariga nisbatan, mutanosib ravishda 1,0 va 0,2 sm; 0,7 va 0,1 sm; 0,2 va 0,1 sm; 1,0 va 0,6 sm; 1,8 va 0,4 sm; 0,2 va 0,1 sm; 0,6 va 0,1 sm ustunlik qilishi kuzatildi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, qora rangli qo'zilar tug'ilganda asosiy eksterer o'lchamlari bo'yicha sur rangli qo'zilaridan ma'lum darajada statistik ishonchli ravishda ustunlik qildi.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki sur qorako'l qo'zilarining tug'ilgan vaqtidagi, 21 kunlikdagi va 4,5 oylikdagi tashqi ko'rinishning individual belgilarining xilma-xilligini ko'rish mumkin. Shu bilan birga bronza rangbaranglikdagi sur qo'zilar yuqori ko'rsatkichlarni namayon qilmoqda Bronza rangli sur qo'zilarining platina va yantar sur qo'zilariga nisbatan mahsuldorligi va hayotchanligining yuqori ekanligi aniqlandi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublika Prezidentining 2017-yil 16-martdagi "Chorvachilikda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-2841-sonli Qarori.
2. Арипов У.Х. Методические рекомендации по сохранению генофонда каракульских овец Сурхандаринского сура. / Арипов У.Х. и др. Реком. Самарканд, 2017, - С. 8-20.
3. Aliyev Dilmurod, Komiljon, Ismoilov, Muxitdinov Shavkat. "Sur qorako'l qo'ylarining hayotchanligi, mahsuldorligi va reproduktiv xususiyatlarini oshirishning fiziologik ko'rsatkichlarga bog'liqligi." Research and education 1.7 (2022): 49-56.
4. Hammond G. Becf from the didru herd // Agrioulture. -1985. -Vol.65 -P.9.
5. Гигинейшвили Н. С. Племенная работа в цветном каракулеводстве. М., "Колос", 1976, 190 с.
6. Ismoilov K. T., Muxitdinov Sh. M., Aliyev D. D. Turli ekologik hududdagi sur rangli qorako'l qo'zilarining fiziologik ko'rsatkichlarga bo'gliqligi // Agrobiotexnologiya va veterinariya tibbiyoti ilmiy jurnali. - 2022. - С. 638-641.
7. Ismoilov K. T., Aliyev D. D. Qon tarkibidagi kaliy miqdorining sur qorako'l qo'ylarining ko'payish fiziologiyasi bilan bog'liqligi // Agrobiotexnologiya va veterinariya tibbiyoti ilmiy jurnali. - 2022. - С. 642-645.
8. Ismoilov Komiljon Tuygunovich, Aliev Dilmurod Davronovich, Matkarimova Gulnoz Maksudzhanovna, Rajabov Jasur Pardaboevich - "Ecological Bases of Productivity of Flow-Colored Sheep". Jundishapur Journal of Microbiology Research Article Published online 2022 April . Vol. 15, No.1 (2022).
9. Туганбаев Р.У. Каракалпакский породный тип каракульских овец окраски сур. Монография. Ташкент 2012, 164 с.
10. Muxitdinov Sh., Aliev D., Ismoilov K., Mamurova G., Matkarimova G., Boboqandova M Qorako'l qo'ylar qoni tarkibidagi biologik faol moddalar miqdorining mahsuldorlik ko'rsatkichlari bo'yicha korrelyatsion bog'liqligi Toshkent 2021, UzMU xabarlari , 3/1/1 83-89-b.
11. Мухитдинов Ш. М., Алиев Д. Д., Исмоилов К. Т., Мамурова Г. Н., & Джуманова Н. Э. (2019). Взаимосвязь биологически активных веществ с продуктивностью и физиологическими свойствами каракульских овец. International scientific review of the problems of natural sciences and medicine, 86-95.
12. Mukhitdinov Sh., Aliyev D., Ismoilov K., & Mamurova G. (2020). The Role Of Biologically Active Substances In The Blood In Increasing The Productivity Of Sheep. European Journal of Molecular & Clinical Medicine, 7(03), 2020.
13. Плохинский Н.А. Руководство по биометрии для зоотехников. Москва. «Колос», 1969, с 10-14; 54-113.
14. Юсупов С.Ю. Конституциональная дифференциация и продуктивность каракульских овец. Ташкент 2005 256с
15. Yusupov S., Gaziev A., Boboqulov N va boshqalar. "Qorako'lchilikda naslchilik ishlarini yuritish va qo'zilarni baholash (bonitirovka qilish) bo'yicha qo'llanma". Toshkent 2015 y. 31-bet.
16. <https://researchedu.org/index.php/re/article/view/311>
17. https://www.ejmcm.com/article_3801_73fe2f809218756cad4f827f79097ffc.pdf
18. <https://sciencebox.uz/index.php/tibbiyot/article/view/4590>
19. <https://sciencebox.uz/index.php/tibbiyot/article/view/4590>
20. <https://sciencebox.uz/index.php/tibbiyot/article/view/4591>
21. https://scholar.google.com/scholar?scilib=1&hl=ru#d=gs_cit&t=1677529419666&u=%2Fscholar%3Fscila%3DZeXyd9uunAC%26output%3Dcite%26scirp%3D7%26hl%3Dru
22. <https://sciencebox.uz/index.php/tibbiyot/article/view/4592>